


CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

Viloyat bo'yicha joriy yilning yanvar-aprel oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 3402,1 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 9,6 % ga kamaydi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 332,4 mlrd. so'mni (1,4 % ga o'sdi), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tovar aylanmasi 3069,7 mlrd. so'mni (10,6 % ga kamaydi), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 405,4 mlrd. so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 17,8 % ga kamaydi) tashkil etdi.


Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd. so'm)



2019-yilning mos davriga nisbatan viloyatning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining kamayish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori kamayish sur'atlari Termiz (23,6 %), Qumqo'rg'on (14,4 %), Uzun (14,1 %), Muzrabot (13,1 %), Sariosiyo (12,4 %), Bandixon (10,9 %), Jarqo'rg'on (9,5 %), Qiziriq (9,4 %) va Oltinsoy tumanlarida (9,4 %) qayd etildi.

SURXONDARYO
VILOYATINING
2020-YIL YANVAR-
APREL OYLARI
CHAKANA SAVDO
TOVAR
AYLANMASI
(dastlabki
ma'lumotlar)

SURXONDARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA
CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI
O'SISH SUR'ATLARI (foizda)




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,4 % ga ko'paydi va 332,4 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 9,8 % ulushiga to'g'ri keladi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra 3069,7 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 10,6 % ga kamaydi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 90,2 % ga teng kelmoqda.



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, (%)


2019-yil
yanvar - aprel



2020-yil
yanvar - aprel



Chakana savdo aylanmasida
yirik korxonalar va kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
subyektlarining ulushi, (%)






Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi 90,2 % ni tashkil etib, bu sektor bo'yicha Muzrabot (98,8 %), Uzun (97,8 %), Bandixon (97,7 %), Qiziriq (97,2 %), Boysun (96,9 %) va Qumqo'rg'on (96,8 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda.

Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 9,8 % ni tashkil etib, eng katta ulush Termiz shahrida (30,3 %), Termiz (17,0 %) va Sherobod tumanlarida (6,4 %) kuzatilgan.

Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Denov tumani (21,6 %), Termiz shahri (19,9 %), Sho'rchi (8,9 %), Muzrabot (5,8 %) va Jarqo'rg'on (5,5 %) tumanlari chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi

Tumanlar kesimida jami chakana savdo tovar aylanmasining ulushi, foizda



Chakana savdo tovar aylanmasidagi hajmi

	Yirik korxonalar (mlrd. so`m)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, % da	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari (mlrd. so`m)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, % da
Surxondaryo viloyati	332,4	101,4	3069,7	89,4
Termiz Sh.	204,6	90,0	470,8	92,1
Oltinsoy	6,6	162,3	172,5	89,1
Angor	5,1	92,0	132,6	91,4
Bandixon	0,2	-	8,7	87,1
Boysun	4,6	78,1	142,7	92,1
Muzrabot	2,5	300,8	194,1	86,1
Denov	40,8	189,7	694,0	90,3
Jarqo'rg'on	12,1	119,7	176,0	88,0
Qumqo'rg'on	4,7	77,6	142,8	85,9
Qiziriq	4,5	88,4	156,2	90,7
Sariosiyo	7,8	118,8	145,9	86,4
Termiz	11,9	78,0	58,4	76,1
Uzun	2,8	186,2	121,8	84,9
Sherobod	7,3	89,1	166,4	91,4
Sho'rchi	16,9	171,2	286,8	90,5

2020-yil yanvar-aprel oylarida chakana savdo tovar aylanmasi viloyat bo'yicha aholi jon boshiga 1291,2 ming so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 11,6 % ga kamaygan. Ushbu ko'rsatkich viloyat hududlari kesimida quyidagicha ko'rinish olgan:

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

	Ming so'm	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, % da
Surxondaryo viloyati	1291,2	88,4
Termiz Sh.	3750,0	73,8
Oltinsoy	1013,1	88,5
Angor	1038,6	89,6
Bandixon	124,8	81,3
Boysun	1267,4	92,8
Muzrabot	1387,7	85,0
Denov	1906,0	90,8
Jarqo'rg'on	861,5	87,6
Qumqo'rg'on	624,5	86,4
Qiziriq	1405,8	82,7
Sariosiyo	743,3	85,7
Termiz	908,9	105,7
Uzun	713,2	84,0
Sherobod	897,0	89,2
Sho'rchi	1453,7	90,6




Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi eng yuqori ko'rsatkilar Termiz shahri (3750,0 ming so'm), Denov (1906,0 ming so'm), Sho'rchi (1453,7 ming so'm), Qiziriq (1405,8 ming so'm) va Muzrabot tumanida (1387,7 ming so'm) hissasiga to'g'ri keladi. Buning sababi ushbu hududlarda yirik savdo va sanoat tashkilotlari joylashgan.

Jumladan, 2020-yilning yanvar-aprel oylari mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 2,2 % ni tashkil etib, 52,7 mlrd. so'mga yetdi yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 23,5 % ga kamaydi. Bunda jami savdo aylanmasining 88,2 % kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari ulushiga to'g'ri kelmoqda.

SURXONDARYO VILOYATINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI (2020-yil yanvar-aprel)

Yanvar-aprel oylarida viloyat bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 909,0 mlrd. so'mni tashkil qildi va 2019-yilning mos davriga nisbatan 2,4 % ga kamaydi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 283,4 mlrd. so'mni tashkil qildi (o'sish sur'ati 0,1 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra - 625,6 mlrd. so'mni tashkil qildi (3,6 % ga kamaydi).


Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd. so'm)





Ko'rsatkichlarni hududlar bo'yicha tahlil qiladigan bo'lsak, viloyat ulgurji savdo aylanmasida o'tgan yilning shu davriga nisbatan eng quyi o'sish sur'ati Muzrabot (75,3 %), Bandixon (77,7 %), Qiziriq (87,1 %), va Angor (88,7 %) tumanlarida kuzatildi. Eng yuqori o'sish esa Qumqo'rg'on (136,0 %), Jarqo'rg'on (116,2 %), Sariosiyo (111,7 %) va Denov (101,2 %) tumanlarida qayd etildi.


Ulgurji savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari, (% da)



Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajmi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri kelib, umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi 68,8 % ni tashkil qilmoqda. Bu ko'rsatkich boshqa tumanlar bilan taqqoslaganda, Boysun (96,1 %), Termiz (95,2 %), Sariosiyo (92,8 %), Uzun (92,5 %), Angor (90,0 %), Sherobod (84,1 %) va Sariosiyo (78,5 %) tumanlarida yuqori bo'lgan.



**Yirik va kichik biznesning
ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (% da)**



Ulgurji savdo aylanmasining tarkibida yirik korxonalar aylanmasining ulushi 31,2 % ni tashkil etdi, yirik korxonalarning ulgurji savdo aylanmasining aksariyati Qumqo'rg'on (79,9 %), Muzrabot (78,9 %) , Bandixon (72,8 %) , Jarqo'rg'on (56,1 %) va Qiziriq (36,6 %) tumanlarida kuzatildi.

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi

	Jami (mlrd. so`m)	O'tgan yilning shu davri ga nisba- tan, % da	Yirik korxonalar (mlrd. so`m)	O'tgan yilning shu davriga nisbata n, % da	Kichik korxonalar (mlrd. so`m)	O'tgan yilning shu davriga nisbata n, % da
Surxondaryo viloyati	909,0	97,6	283,4	100,1	625,6	96,4
Termiz sh.	160,4	91,2	54,0	82,6	106,4	96,4
Oltinsoy	49,7	99,9	15,5	109,4	34,2	96,1
Angor	47,8	88,7	4,7	52,1	43,1	96,2
Bandixon	4,4	77,7	3,2	74,3	1,2	88,4
Boysun	11,2	94,8	0,4	80,2	10,8	95,5
Muzrabot	28,6	75,3	22,6	71,2	6,0	95,7
Denov	127,6	101,2	37,7	108,4	89,9	98,5
Jarqo'rg'on	97,1	116,2	54,5	137,8	42,6	96,8
Qumqo'rg'on	45,9	136	36,7	151,5	9,2	96,5
Qiziriq	33,3	87,1	12,2	74,7	21,1	96,2
Sariosiyo	53,9	111,7	11,6	241,8	42,3	97,3
Termiz t.	90,4	93,3	4,3	66,5	86,1	95,3
Uzun	45,4	91	3,4	57,9	42,0	95,4
Sherobod	86,8	93,6	13,8	81,8	73,0	96,2
Sho'rchi	26,5	96,6	8,8	98,1	17,7	95,9

Surxondaryo viloyat
statistika boshqarmasi
tashqi iqtisodiy faoliyat
va savdo statistikasi bo'limi
Тел 76-225-65-74
76-223-06-97